

16-dars. Ko'p xonali sonlarni qo'shish



1. Sonlarning **grafik modelidan** foydalanib, ularning yig'indisini toping.



Ko'p xonali sonlarni qo'shish

Ikki ko'p xonali sonni qo'shish uchun:

- 1) sonlar ustun shaklida yoziladi va har bir xona raqamlari bir-birining ostiga to'g'rilanadi (**birlar ostiga birlar, o'nlar ostiga o'nlar, yuzlar ostiga yuzlar**);
- 2) birliklardan boshlab, xonalar navbatma-navbat qo'shiladi.

		1	4	7	3
+	4	3	5	6	
	5	8	2	9	

		1	7	7	8
+	9	2	6	9	
	1	1	0	4	7



2. Ifodalarning qiymatini hisoblang.

$$3876 + 4821$$

$$6892 + 2357$$

$$4196 + 3782$$

$$2319 + 5178$$

$$1728 + 4865$$

$$2457 + 1144$$



3. Arxeologiya muzeyida 1138 ta qadimiy tanga, 2235 ta taqinchoq, tangalardan 1200 ta ko'p boshqa predmetlar saqlanadi. Muzeyda jami nechta predmet saqlanadi?



4. Ifodalarning qiymatini hisoblang:

a) agar $x = 4376$ bo'lsa, $x + (3872 + 1509)$ ni;

b) agar $a = 1009$ bo'lsa, $2392 + (a + 3680)$ ni;

d) agar $y = 3956$ bo'lsa, $789 + (976 + y)$ ni.



5. Tenglamalarni yeching.

$$x : 8 = 903 - 899$$

$$63 : y = 504 - 497$$



6. **Sehrli kvadratlarni** to'ldiring.

336	?	224
?	?	420
392	?	280

299	?	?
234	?	338
325	260	?

?	252	?
198	?	?
261	216	225



7. Muzeyda qadimgi odamlarning mehnat qurollari saqlanadi.

Sxemani ko'rib chiqing va muzeyda jami nechta mehnat qurolli borligini aniqlang.



chopqi

? ta qurol,
584 ta ko'p



nayza uchi

876 ta qurol



qirg'ich

? ta qurol,
598 ta kam

(?) ta qurol



8. Poyezd Termiz shahriga soat **13:25** da yetib keldi. Mahmud elektron tablodagi raqamlar yig'indisi 11 ga teng ekanligini payqadi. Elektron tablodagi raqamlarning eng katta yig'indisi nechaga teng bo'lishi mumkin?



9. **Ustun ko'rinishida** hisoblang.

$$\begin{array}{r} 263 + 812 \\ 737 + 986 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 10890 + 5076 \\ 39447 + 8283 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 34997 + 26028 \\ 10259 + 54736 \end{array}$$

10. Muzey kutubxonasida saqlanayotgan qadimiy kitoblar soni 1545 ta bo'lib, **bu** tarixiy hujjatlar sonidan 798 taga kam. Muzeyda jami nechta kitob va hujjat saqlanadi?

